

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish (monolog nutqqa o'rgatish)

Islomov Shohnur Qobiljon o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-22-guruh talabasi
Tel: 97 950 88 44

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni dunyoqarashini kengaytirish, ularni o'zi yashab turgan dunyo haqida ma'lumot berish uchun dastlab, ertak aytib berish. So'ng esa bolajonlarga hikoya tuzishni o'rgatish. Bolalarni fikrlash dunyosini kengaytirish ,o'zi mustaqil fikr yuritishga , tengdoshlari oldida o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish.

Kalit so'zlar: hikoya, ertak, monolog nutq , qayta hikoya qilib berish, qobi lyat , ta'lim-tarbiya

Hikoya qilib berishni o'rgatish vazifasi ilk yosh guruqlarida asta – sekin qiyinlashtirilib boriladi- yaxshi tanish ertaklar, hikoyalarni aytib berish,yangi o'qib chiqilgan asarlarni aytib berish ,hikoyachi shaxsini o'zgartirgan holda (birinchi nomidan va aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasidagi asosida aytib berish ,bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida aytib berish , o'xshashlik asosida (analogiya bo'yicha) aytib berish (qahramonni, mavsumni o'zgartirish va h. k.)

Sahnalaشتirgan holda aytib berish (o'yinchoqlar siluetlar), bolalar tanlovi bo'yicha aytib berish.Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta guruqlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligini aniqlab,maxsus topshiriqlar ro'yxatini ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulot olib boriladi.

1 – topshiriq bolaga tavsiya etilgan ertak yoki hikoyani qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash."Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Ikki echki", "Ur to'qmoq", "Echki bolalari, " Toshbaqa bilan chayon " kabi ertak va hikoyalardan uchtasini taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, unga shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi.

Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilanadi:

- hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yorsdamisiz):
- matn mazmunining to'liqligi :
- matnni bayon qilishda izchillik:

- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;

-nutqning ravonligi.

Tevalar –atrofdagi narsa –predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin:

-bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila olmaydi;

- matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;

- ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiriladi;

- bir oz to'xtab –to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;

-nutqda ifodalilik yetishmaydi;

- bir xil tezlikda ,bir xil tovushda hikoya qiladi;

- o'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi;

- kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;

- hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;

- mantiqiy izchilikka rioya qilmaydi.

Bolalarga “Mehmonda ”, “Uycha”, “Maktabga yo'l” mavzulari va ularga ishlangan rasmlar tavsiya etiladi. Hikoya qilish jarayonida yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi.

Mazkur bog'chalarda bolalarning nutqini kuzatganda quyidagilar asosiy mezon sifatida olinadi:

1. Tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz , mustaqil bayon eta olishi;
2. Matn mazmunini bayon qilishda izchilikka rioya qilishi;
3. Ifoda vositalaridan foydalana olishi ;
4. Nutqning ravonligi, tezligi;
5. Jumlalarning Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi ;
6. Nutq madaniyatiga rioya etilishi.

Bolalar nutqini o'rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi.Shuningdek, bolalarning tevarak -atrofda mavjud bo'lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil etish , ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol - javoblar ham muhimdir.Shu bilan birga , bolalarning bog'lanishli nutqni o'rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutqda bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata

aytiladigan nutq bo'lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, Grammatik jihatdan shakllangan ,hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq yaxshi xotirani , nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo'naltirishni talab etadi. Shuning bilan birga bir vaqtda , monolog nutq tafakkurga tayanadi.

Monolog nutq lingvistik (tilshunoslik) tomonidan ham murakkab hisoblanadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi uchun yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanishi kerak.

Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lismarayonida katta rol o'ynaydi.Bola uchun esa qobiliyat bilish vositasi , o'z bilimlarini , tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Bolalarda monolog nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqidir. Bundan tashqari , bola nutqi monolog nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va Grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak.

Ruhshunoslarning aytishicha , bolalar monolog nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi.

Ruhshunos D.B. Elkanin bu haqda shunday yozadi; Bola hayot tarzining o'zgarishi , kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdag'i faoliyaning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini) farqlashga olib keladi.Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini , kechinmlarini , rejalarini kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli- monolog tarzida xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma -xil masalarini hal qiladi, aqliy rivojlanish rivojlanoshga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur , diqqat rivojlanadi.

Nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi. Shu munosabat bilan bolalar bog'chasida ta'limgarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Bu guruh bolalarini tanish hikoya va ertaklarini (tarbiyachining savollari va kitobdag'i rasmlar hamda mustaqil o'zlari so'zlab berishga o'rgatadi.

O'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yichabo'yicha gaplarni (3-4 ta gapdan iborat takrorlash ko'nikmasi hosil bo'ladi va shu orqali bolada turli xildagi hikoyalarni aytib berish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

O'rta guruhda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va mazmuni biroz murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari bilan birinchi yarim yillikda aytilgan hikoyalarini qayta so'zlab berishlari talab qilinadi va asar qahramonlarining so'zlarini ifodali qilib aytishlari o'rgatib boriladi.

Mashg'ulotlarda birinchi o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishlari, tengdoshlari hikoya qilayotganda tinglab o'tirishlari, bir -birlarini hurmat qilishlari undan tashqari turli xildagi buyum, narsa, o'yinchoqlar va yil fasllari haqida so'z borganda, (tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berib, shular asosida hikoya qilishlari o'rgatib boriladi.

Ikkinchi yarim yillikda esa bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashi, ularda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplariga, o'ziga xos xususiyatlarni tushunishga, asar mazmunini hikoya qilib berayotgan o'rtoqlarining nutqiga diqqat bilan e'tibor berishi asar mazmunini qayerini buzib aytayotganiniga e'tibor berishi davom ettirib boriladi. Katta va maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalar uchun "Nutq o'stirish "bo'limida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish yuzasidagi olib boriladigan ishlar. Ularning mazmuni quyidagicha olib boriladi:

Birinchi yarim yillik. Badiiy asarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatish. Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini ayniqsa, ertakning boshlanmasi , qayta takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga esa ertak qahramonlarning nutqiga alohida e'tibor berish lozim.

Bolalar asar voqealarni so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xili turlarini (xursand, iltimos, hayajonlanish, hayratlanish) kabi holatlariga e'tibor berishi lozim.

Bolalar o'yinchoq va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarga ta'rif berib, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib, ularning (rangi, shakli va qanday o'ynalishi va boshlar) haqida aniq so'zlab berishlarini lozim bo'ladi.

Ijodiy hikoya qilish

Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlalar tuzishga, tasviriy faoliyatga o'rgatiladi.

Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy voqealar asosida mantiqiy fikrlovchi kichik ertak va hikoya tuzishadi: "Bizning oila", "Dam olish kuni", "Mehmonda", "Dadamga qarashdim", "Eng yaqin o'rtog'im" va boshqalar.

Bolalar tuzayotgan ertak va hikoyalarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o'rgatish: "Birinchi qor", "Yaxmalak", "Yangi yil bayrami", "Qorbobo", "Men sevgan fasl", "Tashqarida qor, uyimizda bahor", "Men onamga yordamchi" va boshqalar.

Bolalarga suratlar bo'yicha hikoya tuzishga o'rgatayotganda avvalo ularning mustaqil fikrlashga, suratda ko'rsatilgan mavzu bo'yicha fikr bildirishlariga, bundan tashqari, rasmda aks etgan voqealasosida ilgari nima bo'lgan va keyin nima bo'ladi. Tabiat manzaralarini aks ettirilgan suratga qarab esa tabiatning qanday go'zalligini, nafisligini tashirin so'zlar orqali ifodalash, o'xshatish va sifatlash.

Xulosa

Biz endigina o'sib, unayotgan niholning asta-sekin o'sib unishi uchun uni yaxshilab parvarish qilishimiz lozim bo'ladi. Endigina o'sib kelayotgan yosh avlodni esa ularga yoshligidan e'tibor qaratishimiz lozim. Bu ishda esa mактабгача та'lim tashkiloti asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni bunda bolajonlarimizga istalgan suratimizni ko'rsatib shu haqida hikoya tuzib ber desak, tuzib berolmasligi mumkin. Shu uchun asta-sekinlik bilan olib boriladi. Dastlab, ertak va kichik hikoyalar o'qib beriladi. So'ngra shu ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilib berishlari talab qilinadi va o'rgatiladi. Shu asosida asta-sekin olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari:- 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021" yillardagi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ 2707 son qarori- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami"- 2018yil 16 yanvar.
3. Falsafa qomusiy lug'at. T. -Sharq. NMAK. 2004 -4921
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbek milliy ensiklopediyasi". Davlat milliy nashriyoti. 2006 -3075.
5. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi -konsepsi